FALSAFA

UDK 78.021.2 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a59**

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI MUSIQIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM SHARTLARI

ВАЖНЫЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НА ЗАНЯТИЯХ ПО МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЕ

IMPORTANT CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MUSICAL ABILITY IN MUSIC CULTURE CLASSES

Mamajonov Ulug‘bek Maxammattolibovich[1]

[1]**Mamajonov Ulug‘bek Maxammattolibovich** – Andijon davlat pedagogika instituti, tasviriy san’at va musiqa ta’limi kafedrasi v.b dotsenti

Annotatsiya

Musiqa darslari o‘zining badiiyligi, qiziqarliligi va obrazli kechinmalar uyg‘otishi bilan maktabdagi boshqa fanlardan ajralib turadi. Musiqa bolalaming aqliy va axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi. Badiiy tarbiya esa uning mantiqiy mazmunidir. Musiqa darsining ichki tuzilishi musiqa tarixi, nazariyasi va ijrochiligiga doir turli namunalardan - vokal-xor mashg‘ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqa tahlili va adabiyoti, bolalar cholg‘u asboblarida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iborat. Shuning uchun u aralash dars tipiga kiradi.

Аннотация

Уроки музыки отличаются от других предметов в школе своей артистичностью, интересностью и вызыванием образных переживаний. Музыка положительно влияет на умственное и нравственное воспитание детей. А художественное воспитание-это его логическое содержание. Внутренняя структура музыкального урока состоит из различных примеров по истории, теории и исполнительству музыки - элементов вокально-хорового обучения, музыкальной грамоты, прослушивания музыки, музыкального анализа и литературы, игры на детских инструментах, выполнения ритмических движений. Поэтому он относится к смешанному типу уроков.

Abstract

Music lessons are distinguished from other subjects at school by their artistry, fun and evoking figurative experiences. Music has a positive effect on the mental and moral education of my child. And artistic upbringing is its logical content. The internal structure of the music lesson consists of various samples of the history, theory and performance of music - vocal-choral training, music basket, listening to music, Music analysis and literature, playing children's instruments, performing rhythmic movements. Therefore, it belongs to the mixed lesson type.

Kalit so‘zlar: *Musiqa, vokal-xor, nota, tembr, dinamika, lad - garmonik to‘plam, metr –ritmlar, metod, orkestr, ansambl, repertuar, bolalar ovozi.*

Ключевые слова: *музыка, вокал-хор, нота, тембр, динамика, лад - гармонический набор, метр–ритмы, метод, оркестр, ансамбль, репертуар, детский голос.*

Key words: *music, vocal-choral, note, timbre, dynamics, lad - harmonic set, meter –rhythms, method, orchestra, ensemble, repertoire, children's voice.*

KIRISH

Musiqa san’ati hayotni bilish va odamlarni tarbiyalashning qudratli vositasidir. Ammo uning bilish va tarbiyalashdagi xizmat darajasi kishiga estetik, badiiy jihatdan ta'sir etish kuchiga bog‘liqdir. Musiqa san'ati kishi faoliyatining muayyan bir turi bo‘lib, uning vazifasi jamiyatga estetik xizmat ko‘rsatishdir. Shu ma'noda uning o‘rnini hech bir narsa bosa olmaydi. Musiqa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida faol suratda o‘rin oladi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev «Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorni imzolagani ham bejiz emas. Xususan, bu qarorda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilariga milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o‘rgatiladi hamda bu haqda ularning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlari (shahodatnoma)ga tegishli qayd kiritilishi, hamda 2023/2024-o‘quv yilidan boshlab esa kamida uchtasini chala olish mahoratiga ega bo‘lish majburiy hisoblanishini belgilab qo‘yilgan.

Musiqadan ozuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go‘zallikni his eta oladigan bo‘lishi kerak. Olimlardan birlari «Odam shaxs bo‘lish uchun, u ruhiy tomonidan rivojlanishi, o‘zini bir butun inson deb his qilmog‘i kerak»- degan edi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Shaxsni rivojlantirish uchun avvalo, uning xulqiga ta’sir etuvchi omillarni, uning tabiatini, qiziqishini o‘rganish lozim. Buning uchun shaxsni turli munosabatlari doirasiga qo‘yib kuzatish kerak. Ana shundagina uning ijtimoiy xulqi ma’naviy qiyofasi, insoniy fazilatlari ro‘yobga chiqadi. «Har bir inson – degan edi Abu Nosir Al Forobiy – o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki u yashash va yuksaklikka erishish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi, shu sababli u ko‘p narsalarni o‘zaro yordamlashuvi orqali yetuklikka erishadi».

VIII-XII asarlarda Sharqshunoslik tarixida "Sharq yoki musulmon Renessansi" davri deb nom olgan davr Sharqda O‘rta asrlardagi barcha taraqqiyotlaming eng yuksak cho‘qqisi hisoblanadi. Abu Yusuf Yoqub ibn Is'hoq al-Kindiy, Abu Nasr ibn Muhammad al Forobiy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar shu davrning ajoyib vakillari bo‘lganlar. Al-Forobiyning musiqaga bag‘ishlangan "Kitob ul-musiqiy al-Kabr" ("Musiqa haqida katta kitob") asarida yozilishicha musiqa haqidagi fan amaliy va nazariy sohalardan iborat. Birinchisi musiqiy asboblar yordamida musiqiy asarlarni ijro etishga oid. Ikkinchisi esa ohanglaming kelib chiqishi va musiqiy asarlarni yaratilish qonunlarini o‘rganadi. Forobiyning tabiricha san'at, shu jumladan, musiqa ilohiy ne'mat emas, balki inson ijodining mahsulidir. Uning vazifasi insonga o‘z intelektual va axloqiy sifatlarini takomillashtirishda foydali bo‘lishidan iborat.

O‘quvchilarda musiqa tinglash (musiqa idroki) ni rivojlantirish, ularni musiqiy tomondan tarbiyalashdagi muhim vazifalardan biri bo‘lib, u barcha faoliyatlar davomida olib boriladi. Misol uchun qo‘shiqni o‘rganishda uning ohangiga diqqat bilan quloq solish zarur, kuylayotgan paytda esa musiqa ohangining sofligiga, aniqligiga e'tibor berish juda muhimdir. Bolalar musiqiy cholg‘ularda kuyga jo‘r bo‘lishda, musiqaga xos ritmik va raqs harakatlari bajarishda musiqadagi o‘zgarishlarga quloq solishi va harakatlar orqali unga o‘z munosabatini bildirishlari zarur. Shuning bilan bir paytda musiqa tinglash (musiqa idroki) musiqa darslarida mustaqil faoliyat turidir. U uslubiy adabiyotlarda musiqa tinglash yoki idrok qilish deb aytiladi. Bu faoliyat jarayonida o‘quvchilar o‘zlari ijro qila olishi mumkin bo‘lgan asarlardan murakkabroq musiqa namunalarini tinglaydilar. Lekin bu jarayon musiqa asarlari bilan tanishishdan iborat bo‘lib qolmasligi kerak. O‘quvchilarda musiqa asarlarini tushunish ko‘nikmalarini, malakalarini shakllantirish, ularda musiqiy, ijodiy qobilyatlarni va yana shuningdek eng muhimi musiqiy did va qiziqishlarini o‘stirish juda muhimdir.

O‘quvchilarda musiqiy didni shakllantirishning asosini, yuqori saviyadagi musiqa asarlari va ularni o‘zlashtirishga qaratilgan aktiv musiqa faoliyati tashkil qiladi. To‘g‘ri tashkil qilingan musiqa tinglash jarayoni musiqa idrokini rivojlantirishning turli usullari (masalan musiqaga mos harakatlar bajarish, bolalar cholg‘ularida ijro qilish va yana shuningdek asar mavzularini kuylash kabilar) o‘quvchilarda qiziqish va musiqiy didning shakllanishiga yordam beradi, ularda musiqiy ehtiyojni shakllantiradi.

Musiqa insonga ifoda vositalari kompleksi - tembr, dinamika, lad - garmonik to‘plam va metr –ritmlar orqali ta'sir qiladi, ular esa asar kayfiyatini, inson ichki kechinmalari, hayotiy hodisalarni ifodalaydi.

Musiqiy obrazlarni idrok qilish tinglovchida o‘ziga xos ijodiy faoliyat orqali kechadi. Chunki u o‘z ichiga uning shaxsiy (musiqiy eshituv va hayotiy) tajribalarini oladi. Natijada asar g‘oyasi qandaydir bir muqaddas narsa sifatida qabul qilinadi. Aynan shuning uchun ham musiqashunoslar musiqani eshitganday qilib tinglash – bu qalb, taffakur va o‘ziga xos ijodiyot uchun katta mehnatdir deydilar.

Musiqani idrok etishning turli tomonlariga bolalar auditoriyasi bilan bevosita ish olib borgan musiqashunos amaliyotchilar ko‘p marta e'tiborlarini qaratganlar, misol uchun rus musiqashunosi B. L. Yavorskiy musiqani idrok qilish asosida «fikrlash, musiqani aniq, tushunarli nutq kabi idrok qilish yotadi» - degan edi .

Musiqa insonga ta'sir qilar ekan, uni hayajonlantirishi, o‘ziga qiziqish uygotishi mumkin. Shodlik va qayg‘u, orzu – umidlar, baxt nashidasi va azoblanish – bular barchasi musiqa ifodalay olishi mumkin bo‘lgan hissiyotlar yig‘indisidir. O‘qituvchi bularning barchasini bolalar idrok qilishlari va anglab olishlariga yordam berishi kerak. U yana shuningdek o‘quvchilarda musiqaga nisbatan emotsional munosabatlar namoyon bo‘lishi uchun barcha sharoitlarni yaratishi zarur. Bu esa ko‘p hollarda darsda tinglanadigan musiqa asarlariga bog‘liqdir. Bu asarlar yuqori saviyali, mazmuni bo‘yicha bolalarga yaqin tushunarli bo‘lishi zarur.

FALSAFA

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Har bir bolada uning ichki dunyosiga bog‘liq bo‘lgan qiziqishlar olami mavjuddir. Shu bilan bir paytda ularning ma'lum bir yosh davrida umumiy birlashtiruvchi paytlar ham bor. Kichik maktab yoshidagi bolalar quvnoq, hayotbaxsh musiqalarni sevib tinglaydilar. Ularni bolalar dunyosini ifodalovchi jonli, obrazli, tushinish uchun oson musiqalar qiziqtiradi, o‘ziga tortadi. Misol uchun umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilar mazmuni bo‘yicha oddiy tushunarli bo‘lgan musiqa asarlari: S. Abramovaning «Kuz», o‘zbek xalq kuyi «Andijon polkasi», G‘ofur Qodirovning «Yurish marshi», o‘zbek xalq kuylaridan «Do‘loncha», «Asp bo‘laman», «Oq terakmi - ko‘k terak», D. Zokirov qayta ishlagan «Jamalagim» kabi kuy - qo‘shiqlarni tinglaydilar.

Tinglash uchun tavsiya qilingan musiqa asarlari chorakdan – chorakka, yildan – yilga murakkablashib boradi. Ikkinchi sinfda bolalar o‘zbek xalq kuylaridan «Dutor bayoti», «Qashqarcha», «Qari navo», «Oromijon», «Qo‘shtor», «Chamanda gul», «Norim norim», «Xorazm lazgisi», A. Muhammedovning «Shohi so‘zana», X.Abdurasulovning «Jazoir», o‘zbek xalq kuyi «Lolacha», «Farg‘onacha tanovar» G.Husayinlining «Jo‘jalarim», B. Umidjonovning «Xumo qushim» kabi kuy va qo‘shiqlarini tinglaydilar. Bu asarlar orqali o‘quvchilar o‘zbek xalq kuylari va kompozitorlar ijod mahsulining tanlangan namunalari bilan yaqindan tanishadilar, ularda xalq musiqasi va kompozitorlar ijodiga nisbatan hurmat hissi uyg‘onadi, musiqiy did shakllanadi.

O‘quvchilar diqqatiga tinglash uchun musiqa materialini havola qilishda ularning qancha muddat musiqa tinglay olishlarini e'tiborga olish zarur. Misol uchun 6 - 7 yoshli bolalar bir – bir yarim, II - III – sinf o‘quvchilari uch minutgacha cho‘ziladigan musiqa asarlarini tinch o‘tirib tinglay olishlari mumkin.

To‘rtinchi sinf o‘quvchilarini ko‘piroq mardlik, qahramonlik mavzulardagi musiqa asarlari qiziqtiradi.

O‘smirlar insonning murakkab ichki dunyosini ifodalovchi, musiqa tili bilan zamonaviy muammolarni ifodalovchi asarlar bilan qiziqadilar. Ular ayniqsa XXI asrning o‘ziga xos ritmli musiqasini yorqin his qiladilar. O‘quvchilarni musiqani hissiyot bilan idrok qilishga tayyorlash har xil metodlar va usullar bilan olib borilishi mumkin. Bularga o‘qituvchining kirish suhbati, boshqa san'at asarlaridan foydalanish, cholg‘u kuylarining asosiy mavzularini kuylash kabilar kiradi.

Musiqa haqida xikoya qilish juda mashaqqatli ish. Kirish suhbati uchun yorqin iboralar, obrazli taqqoslashlar topish zarur.

Badiiy asarlar - she'r, g‘azal, hikoyalardan keltirilgan parchalar

ham sinfda emotsional kayfiyat hosil qilishga yordam beradi. Ba'zi bir hollarda tasviriy san'at asarlaridan foydalaniladi. Misol uchun 2 sinf musiqa madaniyati darslarining ikkinchi choragida tinglash uchun Ik. Akbarovning «Bahor», M. Mirzaevning «Bahor valsi», o‘zbek xalq qo‘shig‘i «Boychechak» kabi asarlar tavsiya etiladi. Shu asarlarni tinglatish jarayonida tabiat manzaralari, uyg‘onayotgan bahor fasli tasvirlangan kartinalar, reproduksiyalardan foydalanish mumkin.

Musiqa o‘qituvchisi ajoyib sozanda bo‘lishi zarur. Bu haqda D. B. Kabalevskiy: «O‘qituvchi bilishi zarur bo‘lgan narsalar ichida eng muhimi- uning musiqa asboblarini qanday darajada egallaganligidir» - degan edi.

Albatta, bolalarga xor yoki orkestr ijrosini eshittirish zarur bo‘lib qolgan paytda musiqa darslarini mexanik yozuvlarsiz tasavvur qilish qiyin. Lekin ular o‘qituvchining jonli ijrosini almashtirmasligi, faqat uni to‘ldiruvchi bo‘lishi zarur. O‘qituvchining jonli ijrosi kamida uch jihatdan muhimdir:

Birinchidan, jonli ijro sinfda doimo ko‘tarinki, jonli kayfiyat hosil qiladi;

Ikkinchidan, o‘qituvchi musiqa asarining biron bir parchasi, qismini qayta ijro qilish uchun to‘xtashi, hatto asar boshiga qaytishi ham mumkin;

Uchinchidan, o‘qituvchi ijrosi o‘quvchilariga musiqaning jonli ijrosi amalda qanchalik qiziqarli va muhim ekanligini ko‘rsatish uchun misol bo‘lib xizmat qiladi.

Sinf jihozi estetik jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin, lekin ular musiqa darslari uchun zarur bo‘lgan muhitni yaratishga yordam berishi zarur.

Zamonaviy musiqa darslarini audio - video vositalarisiz tasavvur qilish juda qiyin. Musiqa tinglatish uchun musiqa yozuvlari televizor, video magnitofon, DVD, komp'yuter texnikalaridan keng foydalanish kerak. Ular o‘quvchilarni turli xil ijrolar (orkestr, xor, ansambl) bilan tanishtirish imkonini yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir musiqa darsida o‘qituvchi tomonidan ijro etiladigan kuy va qo‘shiqlar yoqimli, chiroyli, hamohang qilib ijro etilishi lozim. Chunki o‘qituvchining ta'sirli ijrosi o‘quvchilarni asarga qiziqtirish uchun jonli vosita hisoblanadi. Xususan, o‘zbek musiqasi va milliy cholg‘u asboblaridan keng foydalanish, darsning yanada jonli va qiziqarli o‘tishni ta'minlaydi. O‘zbek musiqasi bilan bir qatorda qardosh va xorijiy xalqlarning musiqasini o‘rganib borish o‘quvchilarni vatanparvarlik va baynalminallik ruhida tarbiyalashga yordam beradi. O‘quvchilarning ijodiy faolligini o‘stirish uchun dars jarayonida «Men yoqtirgan kuy va qo‘shiqlar», «Men sevgan kompozitor» kabi mavzularda munozarali suhbatlar bahslar uyushtirish, o‘quvchilarga qiziqarli uy vazifalari berish, topishmoq rebuslar o‘ylab topish, ilg‘or o‘quvchilarni rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib, musiqa darslarida turli harakatlar bilan bajariladigan o‘yin elementlaridan foydalanish darsning samarali bo‘lishiga yordam beradi.

O‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirish o‘qituvchidan ma’suliyatli, o‘ta izlanuvchan, ijodkor, topqir, ya’ni bolalarda ijodiy zavq uyg‘ota olish mahoratiga ega bo‘lishni talab etadi.

O‘quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashda bir-biriga bog‘liq uchta yo‘nalish mavjuddir. Ulardan biri bolalar hayotiy va musiqiy tasavvurlarni boyitishdir.Misol uchun ertaklar, she'r, xalq an'analari, kitob qahramonlarini bilish u yoki bu musiqiy o‘yinlarni o‘tkazish uchun asos bo‘ladi.

Ikkinchi yo‘nalish o‘quvchilarni ijodiy harakatlar vositalari bilan tanishtiradi. Shu maqsadda ularga oddiy kuylarni, qo‘shiqlarni bir-biriga qiyoslash taklif qilinadi. Musiqiy ijodkorlik namunalari beriladi. Misol uchun ritmik kirishni ijod qilish topshiriladi.

Uchinchi yo‘nalish ijodiy harakatlar usullarini egallashni nazarda tutadi. Dastlab pedagogning o‘zi ularni ko‘rsatib beradi: qo‘shiq yoki kuyni birgalikda tahlil qilgandan keyin uning ijro rejasini u yoki bu ijodiy vazifa qanday ijro qilishsa ko‘ngildagidek chiqishini isbotlab beradi.

Bolalarga yaxshi tanish qo‘shiqlar vositasida ladning bir xil pog‘onalarining qo‘shilishidan har xil musiqiy obrazlar tuzish mumkinligini, musiqa xarakteri har - xil ifoda vositalarining qo‘shilishi natijasida xosil bo‘lishni bolalarga tushuntiriladi. Kelajakda olinadigan tajribalar natijasida bolalar o‘zlari «ijod» qila boshlaydilar. O‘quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash katta ahamiyatga egadir. Misol uchun ular kuy variantlarini o‘ylab topishlari uchun yetarli darajada ohang ritmik tajribaga ega bo‘lishlari zarur.U esa ma'lum bir izchillikda shakllanadi. Shuning uchun ham bunday vazifalarni xal qilishdan oldin sharqiy matn ritmik, shakl, kuy tuzilishlari o‘rganilmog‘i kerak.

O‘quvchilardagi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning aktiv vositasi ularga ijodiy vazifalar berishdir. Ularning muvaffaqiyatli hal qilinishi ko‘pchilik hollarda o‘qituvchiga, uning shaxsi, qiziquvchanligi, ijodiyot jarayonida qatnashishiga bog‘liqdir.

O‘qituvchi ma'lum bir holatlarni hosil qilib ularni ijodiy harakatlarga undaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda ijodiy tashabbuslarni faollashtirish uchun u o‘yin shaklidagi ijodiy vazifalarni taklif qiladi.

Vazifalarning to‘g‘ri bajarilishiga u tomonidan tushuntirilgan o‘yin qoidasi va syujet mazmuni katta yordam beradi. Darsdagi o‘yinlar esa emotsional hozirjavoblikni, erkin muhitni shakllantiradi. Bu esa juda muhim bo‘lib, bolalardagi ijodiy imkoniyatlar ana shunday sharoitda to‘la - to‘q ro‘yobga chiqadi.

O‘yinlar sharti va mazmunining asta - sekin murakkablashishi, o‘quvchilar musiqiy tajribalari, ijodiy imkoniyatlarining boyib borishiga yordam beradi.

Ijodiy faoliyat jarayonida o‘quvchilarning mustaqilligi kengayib boradi. Agar dastlab o‘yinni o‘qituvchi olib borsa, keyinchalik uni o‘quvchilar olib boradilar. Ba'zan ular o‘z o‘yinlarini o‘ylab topadilar yoki oddiy o‘yinlarni musiqiy o‘yinlarni musiqiy o‘yinlarga aylantiradi.

Barcha ijodiy vazifalar ma'lum bir izchillikda bajariladi. Misol uchun ifodali harakatlarni topish uchun bolalar dastlab musiqa asarini tinglaydilar, uning harakteri va musiqa ifoda vositalarini aniqlaydilar. Keyin ular u yoki bu harakatlarning mumkin bo‘lgan variantlarini aniqlaydilar.

O‘ylagan, ko‘zda tutilgan narsa jamoa bo‘lib yoki yakka muxokama qilinadi. Ijodiy yechimning natijasi asarning ifodali ijrosidir.

Bajarilgan vazifani baholashda musiqiy timsollarni tushinish darajasi kompozitsiyani sayqallashtirish uchun harakat, asarni «avtorning» o‘zi ifodali takrorlashi kabi holatlar e'tiborga olinishi zarur.

Musiqa tarbiyasining dastlabki davrlarida ifodali usullar qo‘shiqlarni cheklangan pog‘onalarda ijod qilish muhimdir. Ana shunda o‘quvchi musiqa tinglash, qo‘shiq kuylash, cholg‘u asboblarida ijro qilish jarayonida olgan aniq taassurotlari bilan bemalol ish ko‘rishi mumkin.

O‘qituvchi har xil musiqa faoliyatlari jarayonida: musiqa tinglash, kuylash, bolalar cholg‘u asboblarida ijro qilish, raqs harakatlari bajarishda o‘quvchilarning ijodiy tomondan rivojlanishiga katta e'tibor qaratish lozim. Avvaliga kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar raqs harakatlari, oddiy cholg‘u asboblarida ijro qilish bilan bog‘liq ijodiy vazifalarni yengil hal qiladilar. Ular o‘z ijodlarini har tomonlama o‘ylab chiqadilar, sayqallashtiradilar va ifodali qilib takrorlaydilar.

Qo‘shiq kuylashda bolalar uchun keladigan ijodiy qiyinchilik(ovoz bilan eshituvning muvofiqlashmasligi) asta-sekin yo‘qolib boradi. «kuylamaydigan» bolalar o‘zlarini ijodiy imkoniyatlarini harakatlarida bolalar cholg‘u asboblari ijrosida kuylovchi bolalar esa qo‘shiq kuylashda namoyon qilishlari mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Musiqa darslarining samarali bo‘lishi sinfda o‘quvchilarni ijodiy faolligini oshirishga ham bevosita bog‘liq. O‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirish o‘qituvchining so‘z mahoratiga, muloqot qilish san'atiga ega bo‘lishni taqozo etadi. O‘qituvchi qiziqarli xikoya va suhbati bilan bolalar diqqatini asar mazmuniga, musiqiy obrazlarga jalb etadi. Kompozitorlarning ijodiy biografiyasiga oid xikoyabop qiziqarli voqeya va lavhalardan parchalar keltirish, biron bir asarning yaratilishi tarixini bayon qilish bilan o‘qituvchi o‘quvchilarning bilish qobiliyatini o‘stiradi, musiqa haqidagi bilim doirasini yangi ma'lumotlar bilan boyitadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. SH.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz Toshkent - “Ozbekiston”-2016.yil

2. Umumiy urta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi 7- maxsus son. Musiqa. «Sharq» matbaa konserni M., 1999 .umki

3. Апраксина О. Методика музыкального воспитания в школе. «Просвешение»» М., 1983.

4. Апраксина О. Из истории музыкального воспитания. «Просвещение»» М.,1990 .

5. Дмитриева Л. Г. Черноиваненко Н. М. Методика Музыкального воспитания в школе. М.,1989.

6. Кабалевский Д. Б. Музыка в начальных классах. М., 1985.

7. Кабалевский Д. Б. Как рассказывать детям о музыке. «Просвещение»» Т.,1989.

8. Nurmatova M. A. «Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari» fani buyicha ma'ruza matnlari. Urg., 2007.

9. Omonullaev D., Nurmatov X va boshq. 1- sinfda Musiqa darslari T.,2000.

10. Omonullaev D. Ibragimov O. Yormatov Sh. Muzыka. 8- sinf uchun darslik. «O‘qituvchi».T. ,1995

11. Omonullaev D. Maktabda Musiqa tarbiyasi metodikasidan leksiyalar kursi T.1990.

12. O‘zbek maktablarining I - IV sinflari uchun programmalar. «O‘qituvch T..1991.